

MAMLAKAT TO'LOV BALANSIDA PORTFEL INVESTITSIYALARING O'RNI

Jumayeva Soxibjamol Xolmuratovna

TMI, "Xalqaro moliya-kredit" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

Narimonov Sayfulloxon Sunnatillo o'g'li

TMI, "Xalqaro moliya-kredit" kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakat to'lov balansi, uning tarkibiy tuzilishi, to'lov balansiga portfel investitsiyalarining ta'siri, mamlakatimizda portfel investitsiyalarining rivojlanish holati va portfel investitsiyalar hajmini kengaytirish bo'yicha bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *to'lov balansi, moliyaviy operatsiyalar hisobi, fond bozori, aksiya, obligatsiya, portfel investitsiyalar.*

THE ROLE OF PORTFOLIO INVESTMENTS IN THE COUNTRY'S BALANCE OF PAYMENTS

ANNOTATION

In this article, the country's balance of payments, its structural structure, the impact of portfolio investments on the balance of payments, the state of development of portfolio investments in our country and proposals for expanding the volume of portfolio investments have been developed.

Key words: *balance of payments, account of financial operations, stock market, stock, bond, portfolio investments.*

KIRISH

Jahonda mamlakatlar to'lov balansini tartibga solish amaliyotida valyuta kursi rejimini to'g'ri tanlash va muvofiq valyuta siyosatini amalga oshirish muhim o'rinn tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda valyuta siyosati orqali to'lov balansi muvozanatini

ta'minlashda bozor mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti keng tarqalgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'lov balansi holatiga ta'sir etish mexanizmlari bir muncha cheklangan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda to'lov balansi va mamlakatimizning xalqaro investitsion pozitsiya bo'yicha hisobotlar xalqaro standart talablari asosida tayyorlanib, nashr qilib borilmoqda. To'lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi darajasini aks ettiradi. Ayni paytda, to'lov balansi har bir mamlakat uchun individual xususiyatlarga ega bo'ladi va bu holat o'sha mamlakat iqtisodiy siyosati, iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligi, resurs ta'minoti kabilalar bilan izohlanadi. Shuningdek, to'lov balansiga xalqaro muhit va shart-sharoitlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

«To'lov balansi» atamasi ilk marotaba D.Styuardning «Siyosiy iqtisod tamoyillari haqida tadqiqotlar» (1767 y.) asarida foydalanilgan bo'lib, unda tashqi savdo va kapital harakati o'rtaсидаги bog'liqliк ko'rsatib berilgan [1].

N.X.Jumayev o'z tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasida xorijiy valyutalarga nisbatan talabning barqaror emasligi, tashqi savdoning ijobiy saldosini milliy valyutaning almashuv kursi barqarorligiga ijobiy ta'sirining mavjudligi kabi valyutani tartibga solish amaliyotiga xos bo'lgan tendentsiyalarni aniqlagan. Shuningdek, respublikamizda milliy valyuta kursi rejimini tanlash va uni amal qilish shart-sharoitlarini asoslagan [2].

J.Ataniyazov va E.Alimardonovlar mamlakatning to'lov balansi, uning tarkibiy bo'limlari, to'lov balansini hisob-kitob qilish usullari, to'lov balansi taqchiligi va uni oldini olish yo'llari kabi masalalarni o'rganishgan [3].

E.Alimardonov xalqaro moliyaviy markazlarning shakllanishi mamlakat to'lov balansiga moliyaviy operatsiyalar hajmining oshishi, xorijiy investorlar sonini ko'payishi orqali ta'sir etishiga oid izlanishlarni olib borgan [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

To‘lov balansi – bir mamlakatning boshqa malakatlarga ma’lum bir davr mobaynida haqiqatda o‘tkazgan valyutaviy to‘lovlari va tushumlari o‘rtasidagi nisbatni, mamlakatning xalqaro pullar harakatini o‘zida aks ettiruvchi hujjatdir. Agar to‘lov balansida valyutaviy tushumlar to‘lovlardan ortib ketsa, to‘lov balansi aktiv emas, aksincha esa passiv hisoblanadi.

Joriy operatsiyalar balansi (xususan, tovarlar eksporti va importi o‘rtasidagi nisbatni o‘zida aks ettiruvchi savdo balansi, xizmatlarning sof eksportini, investitsiyalardan olingan daromadlarni va bir tomonlama pul o‘tkazmalarini o‘zida aks ettiruvchi “ko‘rinmas” joriy operatsiyalar balansi) va kapital harakati balansi (mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi va unga xorijiy kapitalni kirib kelishini o‘zida aks ettiradi) to‘lov balansining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Joriy hisob quyidagi bo‘limlardan iborat: savdo balansi, xizmatlar balansi, daromadlar balansi va bir tomonlama transfertlar. Ushbu bo‘lim mamlakat to‘lov balansining eng ko‘p tranzaksiyalar amalga oshiriluvchi qismidir.

To‘lov balansining ikkinchi bo‘limi Kapital bilan bog‘liq va moliyaviy vositalar operatsiyalar hisobi asosan kapital va moliyaviy vositalar harakatini aks ettiruvchi moddalardan iborat bo‘lib, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari hisobga olinadi. Ushbu bo‘lim taqdim etilgan va jalb qilingan savdo kreditlari va avanslar, berilgan va jalb qilingan kreditlar va qarzlar, naqd xorijiy valyuta, joriy hisobdagи qoldiqlar va depozitlar, muddati o‘tgan qarzlar, shu jumladan hukumatlararo shartnomalar asosida tovar yetkazib berish bo‘yicha qarzlar, eksport valyutasi va to‘lanmagan import avanslari o‘z vaqtida kelmasligi sababli qarzning o‘zgarishlarini aks ettiradi.

To‘lov balansi tuziladigan ma’lumotlar turli manbalardan olinganligi sababli, yakuniy natija “Sof xatolar va kamchiliklar” bo‘limida umumlashtiriladi. Buxgalteriya hisobi kuchli an'anaga ega bo‘lgan mamlakatlarda ushbu ob’ektning nisbiy qiymati odatda kichikdir. Kapitalning qochishi yoki noqonuniy chiqib ketishi sodir bo‘lgan joyda bu qiymat sezilarli darajada yuqori bo‘lishi mumkin.

Rasmiy nuqtai nazaridan, to‘lov balansining ushbu moddasining qiymati, bir tomonidan, joriy hisob va kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi yig‘indisi va rasmiy qiymat o‘rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. boshqa tomondan valyuta (va boshqa tegishli) zahiralari.

Balansning birinchi va ikkinchi bo‘limlarini, shuningdek, “Xatolar va kamchiliklar” maqolasini yakunlash ijobiy yoki salbiy balansga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan yakuniy balansni jamlash imkonini beradi.

Agar yakuniy saldo ijobiy bo‘lsa, demak, mamlakat boshqa mamlakatlarga bo‘lgan talablarini oshiradi va shunga mos ravishda ular oldidagi majburiyatları ham xuddi shunday miqdorda kamayadi. Aksincha, agar balansning yakuniy balansi salbiy bo‘lsa, demak, to‘lov balansidagi kamomadni qoplash uchun u boshqa mamlakatlar oldidagi majburiyatlarini oshirishi kerak. Mamlakatimizning to‘lov balansi holatini tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Mamlakatimiz to‘lov balansining holati (mln. dollar) [5]

Bo‘limlar	2020	2021	2022
A. Joriy operatsiyalar xisobi saldosи	-3027,9	-4894,7	-628,3
B. Kapital operatsiyalar xisobi (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	25,2	32,2	22,2
C. Moliyaviy xisob	-5515,2	-5922,2	-365,6
To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar	-1716,9	-2273,0	-2527,3
Portfel investitsiyalar	-1389,6	-2001,2	-26,6
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (rezevlardan tashqari)	6,4	12,7	9,9
Boshqa investitsiyalar	-2415,1	-1660,7	2178,2
D. Sof xatolar va yo‘qotishlar	-1115,9	-1526,1	-1083,8
E. Umumiy balans	-1396,6	466,4	1324,2
F. Zaxiralar va ular bilan bog‘liq moddalar	1396,6	-466,4	-1324,2

2022 yilda joriy operatsiyalar hisobi saldosi manfiy bo‘lib, 628,3 mln. dollarni (2021 yilda 4,9 mlrd.doll.) tashkil etdi. Bunda, savdo balansining (tovarlar va xizmatlar) manfiy saldosi (13,7 mlrd. dollar) birlamchi va ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi (13,1 mlrd. dollar) hisobiga qisman qoplandi.

Eksport hajmi (oltinsiz) 17,8 mlrd. dollar va import hajmi 35,6 mlrd. dollarni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan mos ravishda 44 foiz va 27 foizga ko‘paydi. Eksport tarkibida tovarlar (oltinsiz) 13 mlrd. dollar va xizmatlar 4,8 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, tovar va xizmatlar importi mos ravishda 28,3 mlrd. dollar va 7,3 mlrd. dollarga teng bo‘ldi.

Birlamchi daromadlar saldosi 896,7 mln. dollarni (2021 yilda 360,2 mln. dollar) tashkil etdi. Shuningdek, ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi shaxsiy transfert (o‘tkazma)lar balansining 2021 yilga nisbatan 2 barobarga o‘sishi hisobiga 12,2 mlrd. dollarni tashkil etdi (2021 yilda 6,2 mlrd. dollar).

2021 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi to‘lov balansi ko‘rsatkichlarining shakllanishiga ichki va tashqi bozorlardagi iqtisodiy faoliyning tobora oshishi, tashqi savdo aylanmasi va pul o‘tkazmalari xajmlarining o‘sishi, global biznes muhitining muvozanatlashuvi kabi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Yuqoridagi omillar ta’sirida 2021 yil uchun joriy operatsiyalar hisobi defitsiti dastlabki e’lon qilingan ko‘rsatkich doirasida 4,8 mlrd. dollar (2020 yilda 3,0 mlrd. dollar), YaIMga nisbatan 7 foiz darajasida shakllandı.

2022 yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobning saldosi manfiy bo‘lib, 1,7 mlrd. dollarni (2021 yilda manfiy saldo - 6,4 mlrd. dollar) tashkil etdi. Moliyaviy hisobning majburiyatlar qismida asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa investitsiyalar mos ravishda 2,5 mlrd. dollar va 9 mlrd. dollarga o‘sgan.

Moliyaviy hisobning manfiy saldosi 6,3 mlrd. dollarni (2020 yilda 4,1 mlrd. dollar) tashkil etib, bu ko‘rsatkich rezidentlarning moliyaviy aktivlari 46 foizga yoki 3,3 mlrd. dollarga, majburiyatları esa 10 foizga yoki 1,1 mlrd. dollarga qisqarishi tufayli hosil bo‘ldi. Moliyaviy aktivlarning qisqarishi asosan monetar oltinning jahon bozorlaridagi narxi o‘zgarishi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA

Moliyaviy hisobda davlatning moliyaviy aktivlari va majburiyatlar bilan operatsiyalar qayd etiladi. Bu boshqa barcha operatsiyalar balansi qanday moliyalashtirilishini ko'rsatadi. Moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish net asosda amalga oshiriladi. To'lov balansi moliyaviy hisobining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, boshqa investitsiyalar, zaxira aktivlari.

Mamlakatimiz to'lov balansi tarkibida portfel investitsiyalar bo'yicha asosan majburiyatlar moliyalashtirilayotganini inobatga olsak, ijobiy holat deya olmaymiz. Chunki, mamlakatimizdan portfel investitsiyalari bo'yicha har yili 2 mldr. dollar atrofida mablag'lar chiqib ketmoqda. To'lov balansi mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishish, xalqaro to'lovga qobililik, jahon savdosiga qatnashish darajasini o'zida namoyon etuvchi muhim ko'rsatkich va vosita hisoblanadi.

XULOSA

Davlatlar o'rtaisdagi aktivlar va majburiyatlar bilan xalqaro operatsiyalar to'lov balansining moliyaviy hisobida aks ettiriladi. Moliyaviy hisob to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy derivativlar (svop, optionlar va boshqalar), boshqa investitsiyalar (valyuta va depozitlar, savdo kreditlari va avanslar va boshqalar) va zahira aktivlarini o'z ichiga olishi haqida to'xtalib o'tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stuart, James. *An Inquiry into the Principles of Political Economy*. – London: A.Millar, and T.Cadell, 1767.
2. Nodir Jumaev. "Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions" *International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664, ISSN 2348 0386*
3. Ataniyazov, J. X., & Alimardonov, E. D. "Xalqaro moliya munosabatlari" *Toshkent-2014. UFMJ., Darslik, 279, 280.*
4. Алимардонов, Э. (2015). Мировые финансовые центры: современные теории и их значение в развитии национального финансового рынка. Экономика и инновационные технологии, (3), 141–150. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/8355
6. cbu.uz